



## XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMANI KENGASHINING

### QARORI

2024-yil 19-aprel

VI-77-36-11-160-K/24

Toshloq tumani

#### **Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli qarorlariga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli qarorlari asosida joriy yilning 1-fevraldan 4-aprelga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i J.Qurbonovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining 2024-yil 28-fevraldagi VI-76-17-11-160-K/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, eng ko‘p ovoz olgan hamda “Ochiq budget” axborot portalida avtomatik tarzda g‘olib sifatida tanlab olingan takliflar “g‘olib” deb topilsin.

3. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

-Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha, “Manzilli ro‘yxat” 1-ilovaga muvofiq;

bunda,

-jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko‘payishi yoki loyihaning o‘zgartirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaslik;

-jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan tuman byudjeti mablag‘lari tuman hokimligi qoshida ochilgan

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida jamlangan mablag‘larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo‘yilsin.

4. Tasdiqlangan manzilli ro‘yxat asosida:

-tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (J.Qurbonov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta‘minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag‘ manbasi bo‘yicha (4017) “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” maxsus hisob raqamlari ochilishini;

-tuman hokimligi hisobxonasi (Sh.Muminov) Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag‘lar yo‘naltirilishini;

-buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag‘larni loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma‘lumot kiritib borilishini ta‘minlasin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari (R.Mamajonov) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (J.Qurbonov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “g‘olib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlarni “Ochiq byudjet” portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta‘minlasin.

6. Tuman budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning qonuniyligiga Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (J.Qurbonov) hamda ishchi komissiya a‘zolari shaxsan javobgarligi eslatib o‘tilsin.

7. Mazkur Kengash qarori ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari K.Umarov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



DJURABAYEV  
ABDUKAXXOR  
ABDUVAXIDOVICH

Xalq deputatlari Toshloq tumani Kengashining  
2024-yil 19-apreldagi  
VI-77-36-11-160-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

**Toshloq tumani bo'yicha 2024-yil 1-bosqichda g'olib bo'lgan loyihalarni fuqarolar tashabbusi jamg'armasi hisobidan moliyalashtirish bo'yicha**

**MANZILLI RO'YXAT**

T/r	Tadbirning xos (ID)raqami	Obyekt aniq manzili	Balansda saqlovchi korxonaning nomi	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish qiymati (mln.so'm)	Buyurtmachi tashkilot nomi
<b>Jami:</b>		x	x	x	14 775.0	x
1	032299154011	Bo'ston	Toshloq tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Bo'ston ko'chasini 2700 m ichki yo'llarni asfalt (sahag'allashmagan qismini shag'allashtirish) yotqizish ishlari amalga oshirish	1 215.0	"Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK
2	032318352011	Sadda	Toshloq tuman 22-sonli BMSM	Toshloq tuman Sadda MFYda joylashgan 22-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabini mukammal ta'mirlash va 10 Kvtlik Quyosh panellarini o'rnatish	1 360.0	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)
3	032322195011	Xamrak	Toshloq tuman MMTB	Toshloq MMTBga qarashli 5-o'rta umumta'lim maktabiga 240 o'rinli qo'shimcha bino qurish	1 360.0	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)
4	032315636011	Quyi Yakkatut	Toshloq tuman MMTB	Toshloq tumani 15-umumiy o'rta ta'lim maktabiga sun'iy koplamali sport maydoni, yuvinish xonasi qurish hamda 5 kvli quyosh batareyasi o'rnatish	1 360.0	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)
5	032324297011	Piyozchilik	Toshloq tuman MMTB	Toshloq tuman 7-umumiy o'rta ta'lim maaktabiga sun'iy qoplamali sport maydoni, yuvinish xonasi va 5 kvli quyosh batareyasi o'rnatish.	1 360.0	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)
6	032301707011	Xonariq	Toshloq tuman SSB	Toshloq tumani Xonariq MFYda joylashgan Xolmatobod OShP binosida Rekonstruksiya ishlarini bajarish xamda 10 Kvtlik Quyosh panellarini o'rnatish	1 360.0	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)
7	032315362011	Zarkent	Toshloq tuman MMTB	Toshloq tumani 12-umumiy o'rta ta'lim maktabiga sun'iy qoplamalik sport maydoni, yuvinin xonasi qurish hamda 5 kvli quyosh batariesi o'rnatish	1 360.0	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)
8	032310415011	Qumariq	Toshloq tuman elektr tarmoqlari korxonasi	Qumariq MFY Xojiota, So'filar, Farg'ona ko'chalariga 6ta Transformator va 9 kilometr beton simyog'och o'rnatish.	1 320.0	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Farg'ona filiali
9	032315680011	Xotinqumi	Toshloq tuman MMTB	Toshloq tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabiga 6 ta xonadan iborat qo'shimcha o'quv binosi qurish hamda 5 Kvli quyosh	1 360.0	Yagona buyurtmachi injineriing kompaniyasi (GUKS)

				batareyasi o'rnatish		
<b>10</b>	032318024011	Do'stlik	Toshloq tuman MMTB	Toshloq tumani 2-ixtisoslashtirilgan maktabiga sun'iy qoplamali sport maydoni, yuvinish xonasi hamda 5 kvli quyosh batareyasi o'rnatish	1 360.0	Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS)
<b>11</b>	032312266011	Mexnatobod	Toshloq tuman SSB	Toshloq tumani Tibbiyot birlashmasiga qarashli Mexnatobod oilaviy shifokorlik punktini binosi tamirtalabligi xamda xom g'ishdan hashar yo'li bilan qurilganligi sababli Mexnatobod OShP uchun yangi zamonaviy bino qurish.	1 360.0	Yagona buyurtmachi injinering kompaniyasi (GUKS)